

OLIV TA'LIM MUASSASALARIGI
KIRUVCHILAR UCHUN

REPITITION TEST

SAVOLLAR KITOBII

SAVOLLAR KITOBII RAQAMI:

670

BLOKLAR:

+998974567172 raqamiga SMS yuboring
va natijangizni bilib oling!

Matematika (3.1)

Fizika (2.1)

Ona tili va adabiyoti (1.1)

670*[JAVOBLAR]

Namuna: 670*ABCDBBDA....

Test topshiruvchi:

F.I.O.

IMZO

DIQQAT!


Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!

MATEMATIKA

1. $x, y > 0$. $6 - 4y + x^2 + y^2 - 2x$ ifoda eng kichik qiymat qabul qiladigan x, y lar uchun $x + y$ ning qiymatini toping.
A) 0 B) 2 C) 1 D) 3
2. Agar mehnat unumdorligi birinchi yili 15% ga, ikkinchi yili esa 16% ga o'ssa, u ikki yilda qancha foizga o'sadi?
A) 32,4 B) 34,4 C) 33,4 D) 31
3. Natural bo'luvchilari eng ko'p bo'ladigan uch xonali sonni toping.
A) 908 B) 840 C) 804 D) 480
4. Radiusi 15 bo'lgan sharga konus ichki chizilgan. Agar konusning balandligi 12 ga teng bo'lsa, konusning hajmini toping.
A) 672π B) 864π C) 486π D) 756π
5. Muntazam to'rtburchakli piramidaning hajmi $256/3$ ga teng, asosdagi ikki yoqli burchaklar esa 45° ga teng. Asosning tomonini toping.
A) 8 B) 6 C) 12 D) 4
6. Teng yonli uchburchakning asosi $4\sqrt{2}$ sm, yon tomoniga tushirilgan medianasi 5 sm bo'lsa, uchburchakning yon tomoni qanday bo'ladi (sm)?
A) 5 B) $4\sqrt{2}$ C) 7 D) 6
7. $\arcsin(x/2) > \arcsin(x-1)$ tengsizlikni yeching.
A) $[0; 1/2)$ B) $(1/2; 1]$ C) $[-1; 1]$ D) $[0; 2)$
8. $f(x) = \sin(3x+1) - e^x$ $f'(x) = ?$
A) $\cos(3x+1) - e^x$ B) $\cos 3x + e^x$
C) $-3\cos x - e^x$ D) $3\cos(3x+1) - e^x$
9. To'g'ri burchakli trapetsiyaga radiusi 5 ga teng aylana ichki chizilgan. Agar trapetsiyaning katta asosi 17 ga teng bo'lsa, aylana markazidan trapetsiyaning o'tkir burchagigacha bo'lgan masofa qanday bo'ladi?
A) 12 B) 13 C) 9 D) 7
10. Muntazam uchburchakli prizmaning hajmi 16 ga teng. Asosi tomonining uzunligi qanday bo'lganda, prizmaning to'la sirti eng katta bo'ladi?
A) 4 B) 3 C) 6 D) 2
11. $\frac{(a-b)^2 + ab}{(a+b)^2 - ab} : \frac{a^5 + b^5 + a^2b^3 + a^3b^2}{a^3 + b^3 + ab^2 + a^2b} (a^3 - b^3)$ ifodani soddalashtiring.
A) $\frac{1}{a-b}$ B) $a-b$ C) $a+b$ D) ab
12. $y = 2\sin\frac{\pi x}{3} + 3\cos\frac{\pi x}{4} - \operatorname{tg}\frac{\pi x}{2} = 0$ funksiyaning eng kichik musbat davrini toping.

A) 24 B) 24π C) 12π D) 12

13. O'suvchi geometrik progressiyaning dastlabki uchta hadi yig'indisi 35 ga teng. Agar ulardan mos ravishda 2; 2 va 7 ni ayirsak, hosil bo'lgan sonlar arifmetik progressiyaning dastlabki uchta hadini tashkil etadi. Shu arifmetik progressiyaning uchinchi hadini toping.
A) 3 B) 20 C) 13 D) 8
14. Maxraji 3 ga, dastlabki to'rtta hadining yig'indisi esa 40 ga teng bo'lgan geometrik progressiyaning to'rtinchi hadini toping.
A) 27 B) 54 C) 32 D) 24
15. Har bir ichki burchagi markaziy burchagidan 10 marta katta bo'lishi uchun ko'pburchakning nechta tomoni bo'lishi kerak?
A) 16 B) 24 C) 22 D) 28
16. $x^2 - 9x + q = 0$ tenglamaning ildizlaridan biri 2 ga teng. Tenglamaning barcha koeffitsiyentlari yig'indisi nimaga teng.
A) 2 B) 3 C) -6 D) 6
17. $(97-1-72)$ Tenglamani yeching.
 $\sqrt{x+2} + x = 0$
A) 2 B) -1 C) 0 D) -2
18. $M = \sin 72^\circ$, $N = \cos 220^\circ$ va $Q = \operatorname{ctg} 184^\circ \sin 4^\circ$ sonlarini kamayish tartibida qo'yib chiqing.
A) $N > M > Q$ B) $Q > N > M$ C) $N > Q > M$ D) $Q > M > N$
19. $x^3 + 3x^2 - 4 = 2x + 2$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.
A) 12 B) 6 C) -4 D) -12
20. Tengsizlikni toping $\sqrt{\frac{2x-3}{5x+7}} \geq -2$.
A) $(-\infty; -1,2] \cup [2,5; \infty)$ B) $(-\infty; -1,4) \cup (1,5; \infty)$
C) $(-\infty; -1,4] \cup [1,5; \infty)$ D) $[1,5; 4]$
21. Ikki ishchi birgalikda ishlab, ma'lum ishni 12 kunda tamomlaydi. Agar ularning biri shu ishning yarmini bajarganidan keyin, ikkinchisi qolgan yarmini bajarsa, ish 25 kunda tamomlanishi mumkin. Ishchilardan biri boshqasidan necha marta tez ishlaydi?
A) 1,6 B) 1,5 C) 1,2 D) 1,8
22. Rasmda berilganlarga ko'ra aylananing radiusini toping.

A) 4 B) $3/2$ C) $5/2$ D) $7/2$
23. Konus asosining radiusi 6, yasovchi esa asosning tekisligi bilan 30° burchak tashkil qiladi. Asos markazidan yasovchigacha bo'lgan masofani toping.
A) $3\sqrt{3}$ B) 3 C) 4 D) 2,5
24. $y = -\frac{1}{\cos 2x} + \cos \frac{\pi}{3}$ funksiyaning $x_0 = \frac{\pi}{8}$ nuqtadagi

hosilasini toping.

- A) $-2\sqrt{2}$ B) $2\sqrt{2} + \frac{\sqrt{3}}{2}$
 C) $2\sqrt{2}$ D) $2\sqrt{2} - \frac{\sqrt{3}}{2}$

25. $\log_3(\log_9 x) = \log_9(\log_3 x)$ tenglamani yeching.

- A) 27 B) 3 C) 81 D) 9

26. 383, 340, 93 butun sonlarni barchasini yozish mumkin bo'lgan eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar yig'indisini aniqlang.

- A) 836 B) 816 C) 796 D) 7A6

27. Qanday teg yordamida HTML hujjatining tanasi aks ettiriladi

- A) `<HEAD>...</HEAD>` B) `<TITLE>...</TITLE>`
 C) `<HTML> ...</HTML>` D) `<BODY>...</BODY>`

28. $A_1 = -5$, $B_1 = 7$, $B_2 = 5$ bo'lsin. Quyidagi fo'rmla natijasi 5 ga teng bo'lishi uchun A_2 katakka kiritilishi kerak bo'lgan qiymatni aniqlang.

$= \text{ECJI}(\text{И}(A_1+B_2) \geq A_2 * B_1; A_1 * B_1 < 0); A_1 - B_2 + B_1 - A_2;$
 $A_1 * B_1 + B_2 - A_2)$

- A) -8 B) -11 C) -10 D) -6

29. "Elektron hujjat yuritish" haqidagi qonun qachon qabul qilingan?

- A) 2002 yil, 30-may B) 2003 yil, 11-dekabr
 C) 2004 yil, 29-aprel D) 1993 yil, 7-may

30. Paskal quyidagi dasturning ekrandagi natijasini aniqlang.

var a,b: integer; s:real;

begin a:=2; s:=1; for b:=1 to 6 do

s:=s+a*b; writeln(s:5:2); end.

- A) 43 B) -41 C) 43,00 D) -41,00

FIZIKA

31. Bikrligi 30 kN/m bo'lgan prujina 30 sm ga cho'zilganida uning massasi necha milligrammga ortadi?

- A) $1,5 \cdot 10^{-8}$ B) $1,5 \cdot 10^{-7}$
 C) $1,5 \cdot 10^{-5}$ D) $1,5 \cdot 10^{-6}$

32. Temperaturasi 15°C va hajmi 2 l bo'lgan suvga massasi 1 kg va temperaturasi 90°C bo'lgan noma'lum qotishma solindi. Issiqlik almashinishi natijasida suv-qotishma sistemasining temperaturasi 20°C bo'lib qoldi. Agar suvning solishtirma issiqlik sig'imi $4200 \text{ J/kg}\cdot\text{K}$ bo'lsa, qotishmaning solishtirma issiqlik sig'imi ($\text{J/kg}\cdot\text{K}$) aniqlansin.

- A) 1300 B) 600 C) 400 D) 1100

33. To'g'ri tasdiqni ko'rsating. Elektronlar atomda statsionar orbitalar bo'ylab harakatlanib,...

- A) yorug'lik nurlamaydi va energiya yo'qotmaydi
 B) yorug'lik nurlaydi va energiya yo'qotadi

- C) yorug'lik nurlaydi, biroq energiya yo'qotmaydi
 D) yorug'lik nurlamaydi, biroq energiya yo'qotadi

34. Sovunli pardaga ($n=1,33$) tik ravishda to'lqin uzunligi 600 nm bo'lgan monoxromatik nurlar tushmoqda. Qaytgan nurlar eng yuqori intensivlikka ega bo'lsa, pardoning qalinligi qanday?

- A) 300 nm B) 0,113 mkm
 C) 600 nm D) 0,226 mkm

35. Massasi 1 t, zichligi 800 kg/m^3 bo'lgan sol suvda suzmoqda. Uning vaznini (N) aniqlang. $g=10 \text{ m/s}^2$.

- A) 8000 B) 2000 C) 0 D) 10^4

36. Ikki yoqlama botiq linzada buyumning haqiqiy tasvirini hosil qilish mumkinmi? F - fokus masofa.

- A) mumkin, agar buyum F va 2 F ning orasida bo'lsa
 B) hech qanday holatda mumkin emas
 C) mumkin, agar buyum F ga yaqin joylashgan bo'lsa
 D) mumkin, agar linzaning sindirish ko'rsatgichi linza materialinikidan katta bo'lgan shaffof muhitga joylashtirilgan bo'lsa

37. Ikki proton bir-biriga qarab qo'zg'almas kuzatuvchiga nisbatan bir xil $0,6c$ (c - yorug'likning vakuumdagi tezligi) tezlik bilan harakatlanmoqda. Ularning bir-biriga nisbatan tezligi qanday?

- A) $1,2c$ B) $0,6c$ C) $0,88c$ D) c

38. Yorug'likning suvdagi tezligini toping (km/s). Suvning sindirish ko'rsatgichi $4/3$ ga teng. $c = 3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$.

- A) 240000 B) 200000 C) 225000 D) 150000

39. Agar qiya tekislik balandligining uning asosi uzunligiga nisbati 0,7 ga, tekislik bilan tortib chiqarilayotgan jism orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,2 ga teng bo'lsa, qiya tekislikning FIK qanday (%) bo'ladi?

- A) 70 B) 78 C) 64 D) 74

40. Normal sharoitda 1 m^3 gazdagi molekular soni ... bilan aniqlanadi.

- A) Avogadro soni B) molyar gaz doimiysi
 C) bolsman doimiysi D) loshmidt soni

41. Arximed qonunining to'g'ri tarifini ko'rsating.

- A) suyuqlikka botirilgan jismga jism zichligini siqib chiqarilgan hajmi va erkin tushish tezlanishi ko'paytmasiga teng ko'taruvchi kuch tasir etadi.
 B) suyuqlikka botirilgan jismga siqib chiqarilgan suyuqlik vazniga teng ko'taruvchi kuch tasir etadi
 C) suyuqlikka botirilgan jismga jism vazniga teng ko'taruvchi kuch tasir etadi
 D) jism o'z hajmiga teng suyuqlikni siqib chiqaradi

42. Atom E_1 energiyali holatdan E_2 energiyali holatga o'tishda nurlanayotgan foton energiyasi qaysi ifoda bilan aniqlanadi?

- A) E_1 B) E_2 C) $E_1 + E_2$ D) $E_1 - E_2$

43. Quyida sanab o'tilgan hodisalarning qaysi birlari yorug'likning to'lqin nazariyasi asosida tushuntirilgan?

- 1) interferensiya;
 2) difraksiya;
 3) dispersiya;
 4) fotoeffekt;
 5) qutblanish.
 A) 1,2 B) 3,4 C) 1,2,3,5 D) 2,3
44. Massasi 75kg bo'lgan odamni suvda ko'rtarib turish uchun qalinligi 25 sm bo'lgan muz bo'lagining yuzasi (m^2) qanday bo'lishi kerak?
 A) 30 B) 3 C) 7,5 D) 9
45. Yuqoriga tikotilgan jism $t_1=9$ s dan keyin yerdan 495m balandlikka yetgan bo'lsa, u $t_2=11$ s dan keyin necha metr balandlikda bo'ladi? $g=10$ m/s².
 A) 495 B) 510 C) 500 D) 520
46. Ideal issiqlik masinasining FIK 80% va karno sikli jarayoni bo'yicha davom etmoqda. Issitkich harorati sovutkich haroratidan necha marta katta?
 A) 4 B) 5 C) 2 D) 6
47. 20 m/s tezlik bilan yuqoriga tik otilgan jismning harakat boshlangandan 3 s o'tgandagi bosib o'tgan yo'lini (m) toping?
 A) 25 B) 30 C) 50 D) 20
48. Massasi 4kg, tezligi 5 m/s ga teng bo'lgan sharcha tinch turgan xuddi shunday sharchaga absolyut noelastik to'qnashdi va ikkalasi bir xil tezlik bilan harakatini davom ettirdi. To'qnashganda qancha issiqlik (J) ajralgan?
 A) 25 B) 30 C) 15 D) 20
49. To'siq bilan teng ikkiga bo'lingan yopiq idishda nam havo bor. Birinchi sohadagi havoning nisbiy namligi 35%, ikkinchisidagi epidermis 45%. Agar to'siq olib tashlansa, havoning namligi qanday bo'ladi? Idishdagi havo harorati o'zgarmas.
 A) 45% B) 70% C) 50% D) 80%
50. Foton chiqishi bilan bog'liq bo'lgan kvant o'tishi natijasida vodorod atomidagi elektronning tezligi...
 A) ortishi ham, kamayishi ham mumkin. B) ortadi
 C) o'zgarmaydi D) kamayadi
51. Ichi g'ovak shar 1/5 qismi botgan holda suvda suzmoqda. Sharining umumiy hajmi 1 dm³ bo'lsa, shar ichidagi bo'shliqning hajmini (sm³) toping. Shar materialining 2500 kg/m³.
 A) 720 B) 150 C) 300 D) 920
52. 2 m/s tezlik bilan harakatlanayotgan 4 kg massali jismga 10 N kuch ta'sir qildi. Natijada jismning tezligi 5 m/s gacha ortdi. Bu kuch bajargan ish qanday (J)?
 A) 42 B) 24 C) 50 D) 34
53. 1.10 t massali jism 10 km balandlikka ko'tarildi. Bunda uning massasi qanday o'zgardi?
 A) 11 mg ortdi B) 11 μ g ortdi
- C) 10⁻⁷ kg kamaydi D) o'zgarmadi
54. Induksiyasi 0,3 Tl bo'lgan magnit maydonga uzunligi 0,6 m bo'lgan 10 A tokli o'tkazgich kiritildi. Magnit maydon tomonidan shu o'tkazgichga ta'sir etishi mumkin bo'lgan eng katta va eng kichik kuchlarni aniqlang (N).
 A) 18; 9 B) 20; 10 C) 1,8; 0 D) 10; 0
55. Sirtning yuzi 216 dm² bo'lgan kub shaklidagi jism suvga to'la botib turgan bo'lsa, u necha litr suvni siqib chiqargan? Suvning zichligi 1000kg/m³.
 A) 36 B) 3,6 C) 21,6 D) 216
56. Mis sterjendan 10 s vaqt oralig'ida zichligi 9 A/mm² bo'lgan tok o'tsa, mis sterjenning harorati qanchaga o'zgaradi? Misning zichligi 8900 kg/m³, solishtirma issiqlik sig'imi 380 J/(kg·K), solishtirma qarshiligi $\rho = 1,7 \cdot 10^{-2} \Omega \cdot m$.
 A) 2,4 B) 4,07 C) 20 D) 6
57. Kerosinning sirt taranglik koeffitsiyenti 24 mN/m ga teng. Uchining diametri 2 mm bo'lgan tomizg'ichdan tomizilgan 50 ta kerosin tomchisining massasi qanday (mg)? $g=10$ m/s².
 A) 3020 B) 377 C) 754 D) 1510
58. Tranzistorlar xossasiga qarab quyidagi turli sohalarga ega: ...
 A) emitter, baza va kollektor
 B) baza va emitter, boshqa elektronlar yo'q
 C) katod, anod va p-n-o'tish
 D) emitter va kollektor, boshqa elektronlar yo'q
59. Elektronmagnit to'lqin vakuumda 0x o'qaysi bo'ylab tarqalmoqda. Biron paytda x=0 nuqtada magnit induksiya minimal qiymatga erishgan, elektr maydon kuchlanganligi esa qanday qiymatga erishgan?
 A) 0,75E_{max} B) E_{max} C) 0,25E_{max} D) 0
60. Odamning normal ko'rish masofasi d. U yassi ko'zgodan qanday masofada bo'lganida o'zining tasvirini yaxshiroq ko'radi? d₀ – normal ko'zning eng yaxshi ko'rish masofasi.
 A) $\frac{1}{2}(d_0 + d)$ B) $\frac{1}{2}d$ C) $\frac{1}{2}d_0$ D) $\sqrt{dd_0}$

ONA TILI VA ADABIYOTI

61. Ma'no ko'chishining qaysi turi fikrimizni lo'nda, ifodali, ta'sirchan bayon qilishning bir yo'li sanaladi?
 A) vazifadoshlik B) metonimiya
 C) metafora D) sinekdoxa
62. Bir oqil aytarmish: tingla, qarindosh, Siringni fosh etma, kerak bo'lsa bosh! Ushbu she'riy parchadagi gaplarning egasini aniqlang.
 A) qarindosh, bosh B) oqil, bosh
 C) oqil, qarindosh, bosh D) oqil, qarindosh
63. Ish yuritish hujjatlarining qaysi turida gap kesimlari

- “tayinlansin”, “topshirilsin” kabi majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi fe'llar orqali ifodalanadi?
 A) Xizmat yozishmalari
 B) Ma'lumot-axborot hujjatlari
 C) Tashkiliy hujjatlar
 D) Farmoyish hujjatlari
64. Ba'zi kishilar borki, tanqidni yoqtirmaydilar. Qo'shma gapning turini aniqlang.
 A) kesim ergash gapli qo'shma gap
 B) ega ergash gapli qo'shma gap
 C) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
 D) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap
65. Qaysi gapdagi barcha so'zlarning asosiga uch tovushli qo'shimcha qo'shib yangi so'z hosil qilish mumkin?
 A) Mehmonning oldida mushugingni pisht dema.
 B) O'zingdan o'tganni o'zaging bilar.
 C) Qimorchi boy berganda Jamshidni yodlar.
 D) Yetmish yulduz yarim oyga tatimas.
66. Berilgan baytlarning qaysi birida 4 ta sodda gap mavjud?
 A) Muravvat-u ma'rifatdir buyuklikning nishonasi, Qadam qo'ying, mana sizga asl yo'lning ostonasi.
 B) Ming-ming shukr, kelib davron istiqloqga erishdik biz, Xarob bo'lgan xonadonni butlamoqqa kirishdik biz.
 C) Jahon ichra buyuk yurti doston etaylik biz, Zamon keldi, Vatan bag'rin go'zal bo'ston etaylik biz.
 D) Oldindadir hali hikmat, oldindadir imkonimiz, Yetishgaymiz kelajakka, pokizadir vijdonimiz
67. Uslubiy jihatdan eng muvofiq so'zlar orqali shakllangan gapni belgilang
 A) Ona diyorim, yer uzra baxting kulsin
 B) Ona diyorim, yer ustida toleing kulsin
 C) Ona diyorim, yer uzra toleing kulsin
 D) Ona diyorim, zamin uzra toleing kulsin
68. Sof modal so'z ishtirok etgan shaxsi noma'lum gapni belgilang.
 A) Mayli, san-manga bormaylik, masalani odillik bilan hal etaylik.
 B) Albatta, topshiriqni o'z vaqtida bajaring.
 C) Ehtimol, yo'lda biroz to'xtashga to'g'ri kelar.
 D) Avvalo, bunda atrof-muhitning ta'sirini ham unutmaslik kerak.
69. Qoraxoniylar davrining eng asosiy adabiy va lingvistik yodgorliklaridan biri bo'lgan asar nomini toping.
 A) «Devonu lug'otit turk» B) «Muhabbatnoma»
 C) «Qisasi Rabg'uziy» D) «Qutadg'u bilig»
70. Berilgan ergash gapli qo'shma gapning har ikkala qismida ega ishtirok etgan javobni aniqlang.
 A) Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.
 B) Maktab deb qurdik bino, hamma ilm olsin deb.
 C) Barcha javoblar to'g'ri.
 D) Bug'doy ekan bug'doy, arpa ekan arpa o'radi.
71. Berilganlardan egasi noma'lum gaplarni aniqlang.

1. Mana uy ham qurildi, suv quvurlari o'tkazildi.
 2. Yo'lda ukam menga to'g'ri kelib qoldi.
 3. To'garakka borish kerak.
 4. Yo'lni kesib o'tishga to'g'ri keladi.
 A) 3, 4 B) 1, 3, 4 C) 1, 4 D) 1, 2, 3, 4
72. Birinchi bo'lib qiyosiy-tarixiy tilshunoslik yo'nalishiga asos solgan olim kim?
 A) Mahmud Zamaxshariy B) Yusuf Xos Hojib
 C) Mahmud Koshg'ariy D) Alisher Navoiy
73. Nechta so'z to'g'ri yozilgan?
 aboniment, avf, fortepiano, krepdeshin, koreys, intellektual, slavyan, talafot
 A) 8 ta B) 3 ta C) 5 ta D) 7 ta
74. Quyidagi berilgan qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?
 A) Anzirat xola o'z-o'zidan javrab, qorong'ida ivirsib yurardi
 B) Quadrat ko'cha aylanib kelib uyga kirsas, hech zog' yo'q
 C) Milliard yillar sari yo'l olgan avlodlarning ibtidosiman
 D) Zilola yodsirab, qovog'ini solib, teskari burildi
75. Harakat belgisiga ko'ra so'zlar to'g'ri darajalab ko'rsatilgan qatorni belgilang.
 A) yurmoq-yugurmoq-chopmoq-yelmoq
 B) yurmoq-yugurmoq-yelmoq-chopmoq
 C) yurmoq-yelmoq -yugurmoq -chopmoq
 D) yurmoq-chopmoq-yugurmoq-yelmoq
76. Saylov ochiq yoki yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.
 Ushbu gapda qo'llanilgan so'z yasovchi morfema tarkibidagi jarangli sirg'aluvchi tovushni aniqlang.
 A) v B) n C) r D) q
77. Nutq tarkibida so'zning boshqa so'zlar bilan bog'langanda namoyon bo'ladigan ma'nosi qanday ma'no hisoblanadi?
 A) yasama ma'no B) bosh ma'no
 C) tub ma'no D) ko'chma ma'no
78. -viy sifat yasovchi qo'shimchasi yordamida yasalgan so'zlarni aniqlang. 1) ashyoviy; 2) hajviy; 3) samoviy; 4) xayoliy; 5) kimyoviy; 6) mafkuraviy
 A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 3, 5, 6
 C) 1, 2, 3, 4, 5, 6 D) 1, 3, 4, 5, 6
79. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud emas?
 A) Usta cho'g'day temirni olovda toblab-toblab olar edi.
 B) Undan bir suratgina yodgor qolgan, xalos.
 C) Sizning har bir so'zingiz biz uchun tilladan abzaldir.
 D) Borlik go'yo suv quyganday jimjit.
80. Yaxshi bo'lgin, hatto dushmaning oson // Seni deymasin yaramas-yomon. Tanburning ovozi soz chiqib tursa, // Qulog'in buramas sozchi hech qachon.

(Sa'diy Sheroziy) Ushbu misralardagi fonetik o'zgarishga uchragan portlovchi- jarangli undosh tovush(-lar) sonini aniqlang.

A) 2 ta B) 1 ta C) 4 ta D) 3 ta

A) Yassaviy B) Marg'ioniy
C) Imom Buxoriy D) At-Termiziy

81. Irsoli masal qo'llash qaysi shoir ijodiyotining yetakchi uslubiy fazilatlaridan biri?

A) Ogahiy B) Navoiy C) Bobur D) Lutfiy

82. "Dunyoda «bir qo'rqan yomon, bir quvongan yomon», «Adashganning oldi yo'l», «Mard so'zidan, yo'lbars izidan burilmaydi», «Ko'p bo'ladi aytgan so'zning xatosi», "Egilgan bo'yinni kesmaydi xanjar". Ushbu maqollar qaysi asarda uchraydi?

A) "Rustamxon" B) "Ravshan"
C) "Alpomish" D) "Kuntug'mish"

83. Jon bo'lub ul, ruh aning qolibi,
Kim tanida ruh, aning tolibi.

Ushbu parcha qaysi asardan?

A) "Farhod va Shirin" B) "Layli va Majnun"
C) "Hayrat ul-abror" D) "Sab'ayi sayyor"

84. "Kul tigin" bitiktoshida yozilishicha, "Yuqorida ko'k osmon, pastda qo'ng'ir yer yaratilganda, ikkisinin o'rtasida inson bolalari paydo bo'lgan. Inson bolalari ustidan kimlar xoqon bo'lib o'tirganlar"?

A) To'g'ri javob yo'q.
B) Bo'min xoqon, Istami xoqon.
C) Bilga xoqon, Bo'min xoqon.
D) Bilga xoqon, Istami xoqon.

85. "Shahzoda Plombir" ertagida voqealar qaysi oyda bo'ladi?

A) Dekabr B) Noyabr C) Fevral D) Yanvar

86. "Ufq"(S.Ahmad) romanida Tog'a kimni kampirni (Ikromjonning xotinini) suyuntirishga jo'natadi?

A) Rayimni B) Nizomjonni
C) Karimni D) Ummatalini

87. Qaysi adib "Alpomish" dostonini atoqli baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosida yozib olib, izohlar bilan nashr ettirgan?

A) Oybek B) E.Vohidov
C) O'.Hoshimov D) H.Olimjon

88. G'afur G'ulomning qissalari: 1. "Kuzatish", 2. "Netay", 3. "Sen yetim emassan", 4. "Yodgor", 5. "Vaqt", 6. "Tirilgan murda" 7. "Sog'inish", 8. "Shum bola" 9. "Onalar"

A) 1,3,5,7 B) 2,4,6,8
C) 1,3,5,6 D) 2,3,4,6

89. A.Muxtorning «O'zimmniki emas bu umr...» she'rida shoirning iqrori tarzida bitilgan satrlar qaysi?

A) O'zimmniki emas bu umr, To'la menikimas, sezib turibman.
B) Yengil-yelpi o'tsa umrdan bir dam, Rozi-rizo bo'lmas egasi.
C) O'zimmniki emas. O'rtada baham Achchiq-chuchugi-yu, guli, mevasi.
D) Bir vaqtlar meni deb halok bo'lgan kimdir, Men uning uchun ham yashab yuribman.

90. "Hidoya" asarining muallifini aniqlang.